

XALQARO BAHOLASH DASTURI ASOSIDA BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIGA GAP BO‘LAKLARINI O‘RGATISH METODIKASI

*Lider xususiy maktabi o‘qituvchisi
Alimqulova Dilfuza Alijon qizi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada xalqaro baholash dasturlari (PISA, PIRLS, TIMSS) talablaridan kelib chiqib, boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga gap bo‘laklarini o‘rgatish metodikasi yoritilgan. Gap bo‘laklari sintaksisning markaziy bo‘g‘ini sifatida o‘quvchilarda grammatik bilimlarni mustahkamlash, matn mazmunini anglash va fikrni mantiqiy ifodalash ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Maqolada 4K modeli, gamifikatsiya va raqamli ta’lim vositalaridan foydalanish asosida gap bo‘laklarini o‘rgatishning samaradorligi ilmiy asosda tahlil qilingan. Natijada o‘quvchilarning nutqiy kompetensiyasi, mantiqiy tafakkuri va ijodkorlik qobiliyati rivojlanishi kuzatilgan.

Kalit so‘zlar. boshlang‘ich ta’lim, gap bo‘laklari, xalqaro baholash dasturi, PISA, PIRLS, TIMSS, lingvistik kompetensiya, nutqiy kompetensiya, “4K modeli”, gamifikatsiya, raqamli ta’lim vositalari.

Bugungi kunda ta’lim tizimi oldida turgan asosiy vazifalardan biri – boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida nutqiy va lingvistik kompetensiyalarni xalqaro talablar darajasida shakllantirishdir. Xalqaro baholash dasturlari (PISA, PIRLS, TIMSS) o‘quvchilar bilimini faqatgina an’anaviy grammatik tushunchalar bilan emas, balki ularning fikrlash darajasi, matn bilan ishlash ko‘nikmalari va muloqot qilish qobiliyatları orqali baholaydi. Shunday ekan, gap bo‘laklarini o‘rgatishda metodik yondashuvni takomillashtirish va zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Gap bo‘laklari sintaksisning markaziy bo‘g‘ini sifatida o‘quvchilarning fikrni to‘g‘ri ifodalash, mantiqiy bog‘lanishlarni tushunish va nutq madaniyatini rivojlantirishda alohida o‘rin tutadi. Shu nuqtayi nazardan, xalqaro baholash dasturlari talablariga mos ravishda gap bo‘laklarini o‘rgatish metodikasini ishlab chiqish muhim ilmiy-amaliy vazifadir.

Tadqiqotda quyidagi metodologik yondashuvlar asos qilib olindi:

Nazariy tahlil – lingvistik va pedagogik adabiyotlar, xalqaro baholash dasturlari talablari o‘rganildi (V.V. Babaytseva, A.N. Shukin, S.S. To‘xtasinova, M.A. Kenjayeva va boshqalar).

Kuzatish va tajriba – boshlang‘ich sinflarda ona tili darslarida gap bo‘laklarini o‘rgatish jarayoni kuzatildi.

Innovatsion texnologiyalarni qo'llash – 4K modelimetodikasi, gamifikatsiya vositalari (Kahoot, LearningApps, Quizizz) sinovdan o'tkazildi.

Taqqoslash – an'anaviy va zamonaviy metodlar samaradorligi qiyoslandi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, xalqaro baholash dasturlari asosida tashkil etilgan darslarda:

1. O'quvchilarning grammatik tushunchalarni amaliy qo'llash darajasi oshgani kuzatildi. Masalan, gapdan ega va kesimni aniqlash, to'ldiruvchi va aniqlovchini qo'shib gapni yoyish topshiriqlarida mustaqillik kuchaydi.

2. Nutqiy kompetensiya rivojlandi – o'quvchilar gap bo'laklarini ajratish orqali matndan asosiy ma'no va g'oyani anglashni o'rgandilar.

3. Kognitiv faollik kuchaydi – o'quvchilar o'zlari gap tuzishda turli gap bo'laklaridan ongli foydalanishga harakat qildilar.

4. Gamifikatsiya va raqamli vositalar yordamida dars jarayoniga qiziqish ortdi, o'quvchilar xatolarini tezda ko'rib, mustaqil to'g'rilash imkoniyatiga ega bo'ldilar.

Muhokama (Discussion)

Gap bo'laklarini o'rgatish xalqaro baholash dasturlari mezonlari bilan uyg'unlashganda, o'quvchilar:

PISA talablariga muvofiq o'z fikrini yozma va og'zaki shaklda mantiqiy ifodalay olish;

PIRLS talablariga ko'ra matnni o'qish va sintaktik birliklarni anglash orqali mazmunni tushunish;

TIMSS talablari asosida grammatik birliklarni mantiqiy tafakkurda qo'llay olish ko'nikmalariga ega bo'ladi.

Shuningdek, tadqiqot davomida aniqlanishicha, an'anaviy yodlash asosidagi darslar o'quvchilarni faqatgina qoidalarni bilishga olib keladi. Ammo kompetensiyaviy yondashuv asosida interfaol metodlardan foydalanish o'quvchilarni fikr yuritishga, mustaqil izlanishga va ijodkorlikka yo'naltiradi.

Xalqaro baholash dasturi asosida gap bo'laklarini o'rgatish metodikasi o'quvchilarni faqatgina grammatik bilimlarni yod olishga emas, balki ularni amaliyatda qo'llashga yo'naltiradi. Bu jarayonda o'quvchilar:

Grammatik bilimlarni puxta o'zlashtirishga erishadilar. Gap bo'laklarini izchil o'rgatish natijasida o'quvchilar til birliklarini tizimli ravishda o'zlashtiradi, ularning o'zaro aloqadorligi va sintaktik vazifasini anglab yetadi. Bu esa ularning nutq madaniyati va yozma savodxonligini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Matn mazmunini to'liq anglash va tahlil qilishga o'rgatiladi. Gap bo'laklari asosida matn tahlili olib borish o'quvchilarning mantiqiy tafakkurini rivojlantiradi,

asosiy fikrni ajratib olish, dalillash, o‘z fikrini matn asosida isbotlash ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Fikrini yozma va og‘zaki shaklda aniq ifodalay olishga tayyorlanadi. Gap bo‘laklaridan ongli foydalanish natijasida o‘quvchi o‘z nutqini to‘g‘ri va mantiqiy quradi, dialog va monologlarda faol ishtirok etadi, og‘zaki hamda yozma nutqda aniqlik va izchillikni ta’minlaydi.

Raqamli savodxonlik va zamonaviy texnologiyalardan foydalanishga yo‘naltiriladi. Interfaol platformalar (Kahoot, LearningApps, Quizizz) yordamida gap bo‘laklarini o‘rgatish o‘quvchilarning darsga qiziqishini oshiradi, bilimlarni mustahkamlash va baholash jarayonini tezlashtiradi hamda ularni XXI asr ta’limiga moslashtiradi.

Demak, gap bo‘laklarini o‘rgatishda xalqaro tajribaga tayangan holda “4K” modeli – kreativlik (ijodkorlik), kritik tafakkur (tanqidiy fikrlash), kommunikativlik (muloqot) va kooperatsiya (hamkorlik) asosida tashkil etilgan metodlar samarali natija beradi. Ushbu yondashuv o‘quvchini nafaqat grammatik jihatdan bilimli bo‘lishga, balki kelajakda mustaqil fikrlaydigan, zamonaviy texnologiyalarni ongli qo‘llay oladigan, ijodkor va faol shaxs sifatida shakllanishiga zamin yaratadi.

Shuningdek, gamifikatsiya va raqamli platformalardan foydalanish dars jarayonini qiziqarli va interfaol qiladi. O‘quvchilar o‘zaro musobaqa ruhida topshiriqlarni bajarish orqali hamkorlikda ishslashni, o‘z xatolarini tahlil qilishni va bilimlarini mustaqil nazorat qilishni o‘rganadilar.

Xulosa qilib aytganda, gap bo‘laklarini o‘rgatishda “4K” modeli, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va raqamli ta’lim vositalarini qo‘llash boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining lingvistik va kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishning samarali metodikasi bo‘lib, ularni xalqaro baholash dasturlarida yuqori natijalar ko‘rsatishga tayyorlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

1. Shukin A.N. Obuchenije inostrannym yazykam: teoriya i praktika. – Moskva: Filomatis, 2010. – 416 b.
2. To‘xtasinova S.S. Boshlang‘ich ta’limda ona tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2018. – 198 b.
3. Kenjayeva M.A. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida lingvistik kompetensiyalarni rivojlantirish metodikasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020. – 210 b.
4. Hymes D. On Communicative Competence // Sociolinguistics. – Harmondsworth: Penguin, 1972. – P. 269–293.
5. Van Ek J.A. The Threshold Level. – Strasbourg: Council of Europe, 1975. – 120 p.
6. OECD. PISA 2022 Assessment and Analytical Framework. – Paris: OECD Publishing, 2022. – 260 p.

7. Mullis I.V.S., Martin M.O., Foy P., Hooper M. PIRLS 2021 International Results in Reading. – Boston: TIMSS & PIRLS International Study Center, 2022. – 340 p.
8. Mullis I.V.S., Martin M.O., Goh S., Cotter K. TIMSS 2019 Assessment Frameworks. – Boston: TIMSS & PIRLS International Study Center, 2019. – 280 p.

